

**2026-2027 o'quv yiliga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tashkilotlari
faoliyatining
ASOSIY VAZIFALARI**

2026-2027 o'quv yili uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yillik asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib belgilanadi.

Yillik ish rejasini ishlab chiqishda har bir hududning (viloyat, tuman (shahar)) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining mavjud shart-sharoitlari, pedagogik salohiyati, tarbiyalanuvchilar kontingenti hamda ota-onalar ehtiyojlari inobatga olinib, yillik asosiy vazifalarni belgilash tavsiya etiladi.

Asosiy vazifalar ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda davlat ta'lim dasturlarining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilishi lozim.

Quyidagi asosiy vazifalarga qo'shimcha ravishda mavjud shart-sharoitlar va imkoniyatlardan kelib chiqib, har bir tuman (shahar) hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti darajasida bittadan qo'shimcha asosiy vazifa belgilanishi mumkin. Bunda qo'shimcha vazifa hudud yoki tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hamda mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Yillik asosiy vazifalarning ijrosi o'quv yili davomida muntazam monitoring qilinib, ularning bajarilish natijalari pedagogik kengash yig'ilishlarida muhokama qilinishi hamda keyingi faoliyatni rejalashtirishda inobatga olinishi tavsiya etiladi.

1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturining uchinchi nashrini 2026-2027-o'quv yilidan boshlab respublikadagi barcha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

ta'lim-tarbiya jarayonini bola manfaatlariga va ehtiyojlariga yo'naltirish;
har bir bolaning yoshi, individual rivojlanish xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

o'yin orqali ta'lim berish va bolalarning faol ishtirokini ta'minlash;

XXI asr ko'nikmalari (tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal etish)ni rivojlantirish;

umuminsoniy, milliy, shaxsiy, ekologik va ta'limiy qadriyatlarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida global va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash;

inklyuziv ta'lim tamoyillarini ta'minlash va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish;

bolalarning o'tish davri uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida uydan maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish davri (dastlabki kunlar), har kuni uydan MTTga va uyga qaytishi, shuningdek, MTTdan boshlang'ich ta'lim bosqichiga o'tish jarayonlarini pedagogik jihatdan samarali tashkil etish hamda bolalarning umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'lim bosqichiga kompleks tayyorgarligini ta'minlash;

pedagoglarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy talablar asosida tarbiyachi-pedagogning rolini qayta ko'rib chiqish, bunda u faqat ma'lumot beruvchi yoki yo'naltiruvchi emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi va fasilitatori (yordamchi hamda yo'naltiruvchi) sifatida rivojlantirish;

ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda oilaning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish;

ta'lim jarayonini bolalarning rivojlanishini kuzatish va uning natijalarini tahlil qilish asosida rejalashtirish;

rivojlantiruvchi ta'lim muhitini zamonaviy didaktik vositalar, raqamli resurslar va STEAM elementlari bilan boyitish hamda ta'lim muhitini bolaning mustaqil o'rganishini qo'llab-quvvatlovchi "uchinchi pedagog" tamoyili asosida tashkil etish;

ta'lim jarayonida uzluksizlik, izchillik va sifatni ta'minlash hamda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarni inobatga olish.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'lim jarayonini "Bola, o'yin va pedagog" loyihasi asosida bosqichma-bosqich joriy etish hamda milliy va xalqaro ilg'or tajribalar asosida zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalarni keng qo'llash.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

o'yinni bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishining asosiy vositasi sifatida tashkil etish;

bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual rivojlanish xususiyatlariga mos o'yin faoliyatini tashkil etish;

pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida yo'naltiruvchi, hamkor va fasilitator sifatidagi rolini kuchaytirish;

bolani ta'limning passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish;

o'yin orqali bolalarda XXI asr ko'nikmalari, 5 ta asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish;

rivojlantiruvchi ta'lim muhitini o'yinga asoslangan didaktik vositalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish;

o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta (5-6 yosh) va tayyorlov (6-7 yosh) guruhlarida "Quvnoq matematika", shuningdek, STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan o'rta (4-5 yosh), katta (5-6 yosh) va tayyorlov (6-7 yosh) guruhlar uchun mo'ljallangan "Bilag'on bolajon" o'quv-metodik majmualarini ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali joriy etish.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

“Quvnoq matematika” va “Bilag'on bolajon” o'quv-metodik majmualaridan ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli va samarali foydalanish;

STEAM yondashuvi asosida bolalarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

matematik tasavvurlarni o'yin, tajriba, konstruktorlik va amaliy faoliyatlar orqali shakllantirish;

“Bilag'on bolajon” o'quv-metodik majmualari asosida tajriba va tadqiqot faoliyatlarini tashkil etish hamda ularni o'tkazishda bolalarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

bolalarning yosh va individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni ta'minlash;

pedagoglarni mazkur o'quv-metodik majmualardan samarali foydalanish bo'yicha metodik qo'llab-quvvatlash;

oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida bolalarning bilish faolligi va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda sog'lom turmush tarzini, atrof-muhitga ongli munosabatni, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanish qadriyatlarini bolalikdan shakllantirish maqsadida ekologik tarbiya hamda jismoniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda samarali metodlarni ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llash.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlash;

ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirish;

suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish odatlarini rivojlantirish;

“Ekologik burchak” va “Ekologik yo'lakcha”larni tashkil etish hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

ekologik tarbiyani o'yin, kuzatuv va amaliy faoliyatlar orqali tashkil etish;

oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun xavfsiz, sog'lom va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish hamda tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

yong'in, texnika va yo'l harakati xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish;

sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish, sog'lom va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etish hamda bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash;

bolalar uchun psixologik xavfsiz muhitni yaratish, zo'ravonlik va bullingning barcha ko'rinishlarini oldini olish bo'yicha profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda xavfsizlik bo'yicha tushuntirish va amaliy mashg'ulotlarni muntazam o'tkazish;

bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha monitoring, ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish, ularning zamonaviy ta'lim

texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish hamda metodik xizmat faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish.

Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish va o'z ustida muntazam ishlashini qo'llab-quvvatlash;

zamonaviy pedagogik yondashuvlar, sun'iy intellekt va raqamli ta'lim resurslaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni o'rganish hamda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”ni samarali tashkil etish hamda pedagoglarning faol ishtirokini ta'minlash;

maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari uchun uslubiy birlashmalar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning faoliyatida pedagoglarning muntazam ishtirokini ta'minlash;

metodik xizmat faoliyatini pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari va ta'lim sifati natijalariga yo'naltirish;

pedagoglar o'rtasida tajriba almashish, o'zaro hamkorlik va mentorlik faoliyatini rivojlantirish.